XALQ DEPUTATLARI SHAROF RASHIDOV TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr VII-17-166-3-46-K/25 Sharof Rashidov tumani

2026-yil uchun Sharof Rashidov tumanining mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-23-350-3-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Jizzax viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 02-01-01-170-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Sharof Rashidov tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-23-350-3-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Sharof Rashidov tumani mahalliy budjetining 2026-yilgi daromadlari 130 270 825,0 ming so‘m va xarajatlari esa 130 270 825,0 ming so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Sharof Rashidov tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 756 000,0 ming so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Sharof Rashidov tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda 2026-yilda umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori 2-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy budjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi 4-ilovaga muvofiq, shuningdek 2026-yilda tuman

mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun 1 925 148,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i M.Ergashev, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari (I.Nazarov), tuman soliq inspeksiyasi (M.Tursunmuratov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Ushbu qaror 2026-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Sharof Rashidov tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (O.Abdullayev) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i M.Ergashev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **ASHUROV ASILBEK RAXMONOVICH**

Xalq deputatlari Sharof Rashidov
tumani Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-17-166-3-46-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Sharof Rashidov tuman mahalliy budjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari miqdori

№	Daromad turlari	JAMI
	JAMI	**130 270 825**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	557 930
2	Foyda solig‘i	883 100
3	Aylanmadan olinadigan soliq	13 177 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	6 244 794
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	2 213 113
	Aksiz solig‘i jami	0
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*0*
	pivo	*0*
6	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizasiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*0*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 823 950
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	16 500 000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	24 934 096
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	32 767 032
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	18 626 410
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4 843 000
	shundan: Qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	*6 100 000*
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	*2 440 000*
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0
14	Davlat boji	677 300
15	Yig‘imlar	1 105 800
16	Jarimalar	1 709 300
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	208 000

Xalq deputatlari Sharof Rashidov tumani Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-17-166-3-46-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun ajratma me’yorlari
P R O G N O Z I

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Qo‘shilgan qiymat solig‘i				Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan				Foyda solig‘i				Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Sharof Rashidov tumani	0%	5%	100%	95%	0%	5%	100%	95%	100%	100%	0%	0%	0%	5%	100%	95%	0%	0%	100%	100%

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Pivo				benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizasiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB

1	Sharof Rashidov tumani	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	55%	100%	45%	0%	85%	100%	15%	100%	100%	0%	0%

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar				Aylanmadan soliq		Davlat boji		Jarima		Yig‘imlar	
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar) lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar) lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar) lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar) lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB								
1	Sharof Rashidov tumani	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	0%	10%	90%	10%	90%	30%	70%

Xalq deputatlari Sharof Rashidov
tumani Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-17-166-3-46-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun Sharof Rashidov tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
	Xarajatlar miqdori, jami	**130 270 825,0**
1	Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	44 023 260,0
	shundan:	
	"Mening maktabim" loyihasi	3 708 000,0
2	Tuman madaniyat bo‘limi	1 973 872,0
3	8-son musiqa maktabi	3 623 164,0
4	Yoshlar ishlari agentligining tuman bo‘limi	5 479 321,0
5	Tuman sport maktabi	5 249 588,0
6	Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 604 581,0
7	Tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	1 602 298,0
8	Tuman fermer xo‘jaliklarida bugalteriya hisobi va hisobotlarini yuritish markazi	1 112 628,0
9	Tuman suv yetkazib berish xizmati DM	1 437 428,0
10	Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limlini saqlash xarajatlari	2 881 321,0
11	Hokimiyat	42 862 595,0
	shundan:	
	Tuman hokimligi	*5 882 864,0*
	Hokim yordamchilari	*5 162 540,0*
	Oila va xotin qizlar bo‘limi	*2 193 691,0*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*24 364 352,0*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*3 334 000,0*
	Zahira jamg‘armasi	*1 925 148,0*
12	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi)	929 241,0
	shundan:	
	Tuman axborot-kutubxona markazi	*929 241,0*
13	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	17 491 528,0

Xalq deputatlari Sharof Rashidov
tumani Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-17-166-3-46-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Sharof Rashidov tuman mahalliy budjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

№	Hudud nomi	Mahalliy budjetlarning jami daromadlari	Shundan,		Mahalliy budjet xarajatlari
			Mahalliy budjet daromadlari	Tartibga soluvchi transfert miqdori	
1	Sharof Rashidov tumani	130 270 825,0	130 270 825,0	0,0	130 270 825,0

Xalq deputatlari Sharof Rashidov
tumani Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-17-166-3-46-K/25 -son qaroriga
5-ilova

2026-yilda Sharof Rashidov tuman mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Sharof Rashidov tumani	**756 000,0**